

## SPORTDA XORIJIY TILNI O'RGANISHNING AHAMIYATI: DOLZARB MUAMMO VA YECHIMLAR

**Ibroximova So'g'diyona Murodjon qizi**

*Farg'ona davlat universiteti, chet tillari fakulteti, filologiya va tillarni  
o'qitish: ingliz tili yo'nalishi, 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada sportda xorijiy tillarning tutgan o'rni, xorijiy tillarni o'rganishning sportchilar uchun foydali tomonlari, sport sohasiga qaratilayotgan imkoniyatlar, chet tillarni o'rganishda turli xil innovatsion metodlardan foydalanish va xorijiy tillarni sport sohasida samarali qo'llash haqida batafsil ma'lumotlar beriladi.*

**Kalit so'zlar:** *Sport, terminlar, xorijiy atamalar, metodlar, innavatsion texnologiyalar, fransuz tili, darslik va qo'llanmalar, xalqaro musobaqalar*

### **Kirish.**

Hammamizga ma'lum bo'lganidek, har bir odam o'z sog'ligi uchun qayg'urishi, ko'proq tafakkur qilishi va shu sababli imkon qadar sport bilan shug'ullanishi zarur. Masalan, ertalab inson uyqudan turganda uning tanasi butunlay uyg'onmagan bo'ladi, shu sababli ertalab hech bo'lmaganda badantarbiya bilan shug'ullanish tavsiya etiladi. Bu orqali tanada qon aylanishi ta'minlanadi, inson o'zini tetik, yengil his qila boshlaydi. Tana bo'ylab qon yurganda kechki uyqu va olingan dam yaxshi ta'sir ko'rsatadi, demak ertalab qilingan badantarbiya mashg'ulotlari kun bo'yi insonga ta'sir o'tkazadi.

So'nggi yillarda esa yurtimizda sport sohasiga juda katta e'tibor qaratilayotganini ko'rishimiz mumkin. Bu nafaqat o'zbek xalqini butun dunyoga tanitish, yurtimiz bayrog'ini ko'klarga ko'tarish uchun, balki xalqimizni sog'lom turmush tarziga yo'naltirish uchun amalga oshirilayotgan ishlar deyishimiz mumkin. Yoshlarimiz orasida turli xil sport musobaqalari va sport to'garaklarini tashkil qilish, sport majmualari uchun katta miqdordagi pul mablag'lari ajratish, yoshlarni va talabalarni sportga jalb qilish, har kuni birgalikda badantarbiya mashg'ulotlarini bajarishlari shu jumlasidandir. Albatta, bu ishlarni amalga oshirishda chet tillarini o'rganish ahamiyatga molik jihat ekanligi hech kimga sir emas. Chunki sport va chet tillari turli xil jabhalarda yonma-yon kelishi barchaga ma'lum. Demak, har bir sportchi va sport ixlosmandlari uchun xorijiy tillarni bilish muhim hisoblanadi. Chet tillarini bilish esa ular uchun o'z yo'nalishlarini chuqurroq o'rganishi, mukammal bilimlar olishi va boshqa davlat sportchilari bilan fikr va malaka almashishlarida muhim rol o'ynaydi. Mana shu jihatlari e'tiborga olgan holda, yutimizda sport bilan bir qatorda xorijiy tillarni o'rganishga oid yangi qarorlar qabul

qilinmoqda. Sportchilarimiz chet tillarni o'rganishlari uchun yangi metodlar, innovatsion texnologiyalar, darslik va qo'llanmalar ishlab chiqilmoqda.

Muhokama va natijalar:

Yuqorida keltirib o'tilganidek, sport va xorijiy tillar ma'lum sabablar tufayli bir-biriga bog'liq sanaladi. Shubhasiz, sportchilar xalqaro olimpiadalarga ishtirok etish uchun borganlarida tillar bilan bog'liq muammolarga duch kelishlari aniq. Bunga misol qilib, turli sport musobaqalarida ishlatiladigan xorijiy atamalarni, chet ellik sportchilar yoki hakamlar bilan muloqot qilishni, sportga oid onlayn darslarda qatnashish, ma'lum sport turlari haqida o'zbek tiliga tarjima qilinmagan ma'lumotlarni qidirish va ulardan foydalanishni keltirishimiz mumkin. Misol uchun, qilichbozlik sport turini oladigan bo'lsak, ushbu sohaga oid bo'lgan "En garde", "Pret", "Allez!" kabi atamalariga ko'zimiz tushadi. Ushbu so'zlar qilichbozlikda o'yin boshlanishidan avval qilichbozlar o'z pozitsiyalaruga turishiga, jangga shay bo'lishlariga va jangni boshlanishi paytida qo'llaniladigan atamalar hisoblanadi, ammo fransuz tilini bilmagan odam bundan atamlar ma'nosiga tushunmaydi, qiyinchiliklarga duch keladi. Yoki o'z karyerasini boshqa chet el jamoasida davom ettirish istagida bo'lgan har qanday sportchi chet tillarini o'rganmaslikdan boshqa iloji yo'q. Chunki ushbu jamoa a'zolari, murabbiyi yoki istiqomat qiladigan hududidagi aholining tilini bilmasdan yashash imkonsiz.

Mana shunday muammolarni yuzaga kelishini oldini olish maqsadida mamlakatimizda bir qator dastur va loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu borada Prezident Shavkat Mirziyoyev xorijiy tillarni o'rgatish va o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yishni ustuvor mezonlardan biri etib belgiladi: "Biz raqobatdosh davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurti bitiruvchilari kamida ikkita chet tilini mukammal bilishlari shart. O'zbekistonning ochiqlik siyosati, dunyo bozoriga faol kirib borayotgani, barcha sohalarda xalqaro hamkorlik kengayotgani xorijiy tillarni bilishga ehtiyojni oshirmoqda".

Chet tillarini dunyoning turli qismlarida so'zlashadigan til sifatida, bugungi kunda bunday tillarni o'rganishga bo'lgan talab va ahamiyatni e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi. Bunday tillarni o'rganishga bo'lgan talab va ehtiyoj ortgani sari, ko'plab foydali materiallar ham ishlab chiqilmoqda. Sport sohasidagi insonlar xorijiy tillarni tez va qulay ravishda o'rganishlari uchun bir necha maslahatlar ham quyida berilib o'tiladi:

1. Har bir sportchining o'z tanlagan sport turi bo'yicha sevimli, mashhur sportchisi bo'ladi. Xorijiy tillarini o'rganishda ularni kuzatish metodidan foydalanishlari mumkin. Ularning maslahatlari, intervyularini ko'rish orqali yangi so'z va iboralar o'rganish mumkin yoki "shadowing" metodi orqali ulardek gapirishni bema'lol mashq qilishlari

mumkin. Bu orqali ham che tili o'rganiladi, ham ularning tilga va sportga bo'lgan qiziqishlari ortadi.

2. Hozirgi kunda innovatsion texnologiyalar rivojlangan. Til kurslarini o'rgatuvchi kitob va o'quv qo'llanmalar ishlab chiqilgan. Masalan, "Booknomy" darsligini tinglash va o'qish yordamida sportchi yangi tilni tez fursatda o'zlashtira oladi. Darslikning eng qulay jihati, har bir inson mashg'ulot davomida audiodarsliklarni tinglashi, bo'sh vaqtida kitobni o'qib, o'zlashtirishi mumkin. Natijada, bir vaqtda ikki xil turdagi ma'lumotdan unumli foydalaniladi.

3. Turli xil sport o'yinlarini tomosha qilish orqali yangi til o'rganish oson bo'ladi. Bu orqali nafaqat o'yinlarni kuzatish, balki yangi xorijiy atamlarni yodlash imkoni ham mavjud. Aynan bir sport turida qo'llaniladigan terminlar haqida tushunchalarga ega bo'lish imkoni mavjud bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ingliz tilini bilish har bir soha vakili uchun zarur va yangi imkoniyatlar kalitidir. Kishi o'z sohasini yaxshi bilsa bitta eshik, chet tilini ham bilsa yana bir eshik ochiladi. Aynan, til bilish butun dunyo bilimlari uchun eshik ochadi desak mubolag'a bo'lmaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021 yilning 6 may kuni chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishi.

2. Odam anatomiyasi fani-Tomirlar sestemasi.19.bet.2018yil

3. Ravshanovna, G. N. (2022). THE STUDY OF THE MEANING OF THE WORD TOLERANCE IN OTHER LANGUAGES. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 1, No. 3, pp. 8-9).

4. Ravshanovna, G. N., & Ahmadjanovna, E. T. U. (2021). Methodological characteristics of formation of tolerance skill pupils in primary school. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(1), 1623-1628.

5. Ravshanovna, G. N. (2021). Methods of development tolerance skills pupils in primary school. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(1), 1221-1224.

6. Ravshanovna, G. N. (2022). TOLERANCE IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS PEDAGOGICAL MODEL OF SKILLS DEVELOPMENT. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(2), 95-96.

7. Ravshanovna, G. N. (2020). The Main Directions Of Developing Tolerance Skills Of Primary School Pupils. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 2020.
8. Ravshanovna, G. N. (2023). BOSHLANG 'ICH TA'LIM JARAYONIDA TOLERANTLIKNI TARBIYALASH USULLARI VA VOSITALARI. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(4), 975-980.
9. Ravshanovna, G. N. (2019). TRAINING THE PRIMARY SCHOOL TEACHERS TO INNOVATION ACTIVITIES IN HIGHER EDUCATION SYSTEM. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12).
10. Ravshanovna, G. N., & Anvarovna, Y. D. (2022). INGLIZ VA OZBEK TILLARIDAGI TURIZMDAGI ATAMALARNING LINGVOKULTUROLOGIK JIHATLARI. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE (Vol. 1, No. 3, pp. 14-17)*.
11. Teacher, G. N. R. E. THE IMPORTANCE USAGE OF EXTENSIVE READING Gafurova NR (Republic of Uzbekistan) Email: Gafurova339@ scientifictext. ru. *UIF-2022*, 8.
12. Qizi, O. S. S., & Ravshanovna, G. N. (2022). The scope of neologisms in science fiction. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(5), 1149-1151.
13. Гафурова, Н. П. (2019). Use of modern technologies in the foreign language lessons in primary education. *Молодой ученый*, (15), 256-258.
14. Ravshanovna, G. N. (2023). BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARIDA KO 'P MADANIYATLI TA'LIMNING MOHIYATI, MAZMUNI VA BAG 'RIKENGLIK SHAKLLARI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(19), 967-971.